



**FAXRIYOR IJODIDA OKKAZIONAL BIRLIKLARNING
VERBALLASHUVI**

Toxirjonova Moxlaroy Jaxongir qizi

NamDPI bakalavr 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar

Ibragimova Iroda Artikmashrabovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

NamDPI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada okkazionalizm va neologizm hodisalarining o'xshash hamda farqli jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, okkazional birliklarning she'riy asarlar tarkibida, xususan, Faxriyor ijodida qo'llanilishi tahlil qilinadi hamda ushbu individual neologizmlarning poetik matndagi semantik, stilistik va kognitiv vazifalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: okkazional so'z, neologizm, muallif nutqi neologizmlari, individual xususiyat.

Til taraqqiy etib, rivojlanib borar ekan unga shunchaki fikrni ifodalash quroli emas, balki jonli, inson ichki kechinmalarini, his-tuyg'ularini to'laqonli ochib bera oluvchi estetik hodisa sifatida qarash kuchaymoqda. Uni qalban his etgan va ijodida uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib betakror satrlar bitib kelayotgan shoirlarimizdan biri – Faxriyordir. U she'rlarida lug'atlarda mavjud bo'lmagan so'z va birikmalarni qo'llash orqali tilning yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan shoirdir.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev aytganidek: "Tuyg'u ifodasi bo'lmish she'rda yaratilgan davr kishisining hissiyoti aks etadi. Odamlarda boshqalarga o'xshashdan ko'ra o'xshamaslikka intilish mayli kuchli. Jamiyatdagi har bir shaxs o'zini izlay boshlaganda shunday bo'ladi. Demak bugungi she'riyatni har biri shaxslashib, alohidalashib borayotgan millat kishisi ruhiyati ifodasi, deyish mumkin". Faxriyor ijodi ham o'ziga xoslik, ohoriylik (originallik), tilning ichki imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilganligi bilan ajralib turadi. U ijodida tayyor lingvistik qoliplardan qochib, o'zining ichki kechinmalari uchun yangi so'zlar dunyosini – okkazionalizmlarni yaratadi. Masalan:

Yomg'ir yog'ar, yomg'ir yog'ar,

Ko'chalarni yomg'irlatib...

Okkazionalizmlar – tilning lug'at tarkibida mavjud bo'lmagan, ma'nosi, asosan, kontekstdagina ochiqdanadigan, muallifning fikriga emotsional-ekspressivlik bag'ishlash uchun xizmat qiluvchi lisoniy birliklardir.



Okkazionalizmlar, asosan, poetik matnlar tarkibida, xususan, she'riyatda keng qo'llanilib, fikrning aniqligi, tushunarligi, poetik matnlarda ijodkorning individual obrazga nisbatan qanday yondashishini ochib berishga xizmat qiladi. Ular tashqi va ichki strukturasiga ko'ra g'ayrioddiy bo'lganliklari uchun o'zlarining yangilik bo'yog'ini, deyarli, doimo saqlaydi. Poetik matnlarda, muallif tomonidan, deyarli, bir martagina qo'llanilib, individual xususiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan, bir necha olimlarimiz (X.Abdurahmonov, N.Mahmudov) tomonidan okkazionalizmlarga "individual-stilistik neologizmlar" deya ta'rif beriladi.

Okkazionalizmlar ma'no jihatidan neologizmlarga yaqin tursa-da, bu ikki tushuncha o'rtasida sezilarli farq mavjud.

Neologizmlar (yunoncha "neos"- "yangi" va "logos"- "so'z", "ta'limot") – tilga yaqinda kirib kelgan yoki yangi yaratilgan so'z, ibora yoxud mavjud so'zning yangi ma'nosi. Ushbu atama, dastlab, XVIII asrda fransuz tilshunosligida qo'llangan va keyinchalik ko'plab Yevropa tillariga tarqalgan. Neologizmlar jamiyatda, asosan, texnologik kashfiyotlar, madaniy almashinuv va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida vujudga keladi. Ya'ni yangi hayot tarzi yangi atamalarni talab qiladi. Bu esa tilning jamiyat bilan birga rivojlanishini ko'rsatadi.

Yangi tushunchalarning paydo bo'lishi til lug'at tarkibiga ham yangi so'zlarning kirib kelishi bilan izohlanadi. Yangi kirib kelgan barcha so'zlar birdaniga lug'at tarkibiga o'tib qolmaydi. Tilshunos olimlar X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar tildagi bu holatni quyidagicha izohlaydilar: " Paydo bo'lgan bunday yangi so'zlar tilning aktiv lug'atiga birdan va bir tekis o'tmaydi. Ba'zilar ma'lum vaqt o'tgach "zamon sinovidan o'tib", aktiv qo'llanilib ketsa, ba'zilar mutlaqo individual holatda qolib ketadi. Yangi so'zlarning hali lug'atga o'tib ketmaganlari, ya'ni yangilik bo'yog'iga ega bo'lganlarigina stilistik jihatdan ahamiyatga molikdir. Yangi so'zlarning bunday holatdagilari neologizmlar deb yuritiladi".

Professor S.Mo'minov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida okkazional birlik va neologizmlarni shunday farqlaydi: "Neologizm – til birligi, okkazionalizm esa tilning lug'at qatlamidan o'rin olmagan yoki o'rin olib ulgurmagan mutlaqo yangi nutq birligidir. Okkazionalizmlar – konkret nutq jarayonida individ tomonidan faqat bir martagina qo'llanadigan, ko'pincha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan nutq birligi ekanligi bilan ham keyinchalik nutq birligiga aylanib ketadigan neologizmlardan farqlanadi".

O'zbek tilshunosligida okkazional birliklar va ular bilan bog'liq lisoniy hodisalarni o'rganish va tadqiq qilish borasida qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Mazkur yo'nalishda salmoqli tadqiqotlar olib borgan olimlar va ularning ilmiy izlanishlari natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.



S.Mo'minov

"Okkazional - nutqiy nominatsiyada motivatsiyaning roli" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi

A.Mamatov

"O'zbek tili frazeologik me'yorlari va ularning okkazional qo'llanishi" mavzusidagi tadqiqoti

S.Toshaliyeva

O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi

O.To'xtasinova

"O'zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi

Ana shunday noodatiy birliklarni o'z ijodida qo'llash orqali zamonaviy o'zbek she'riyatida munosib o'ringa ega bo'lib kelayotgan ijodkorlardan biri Faxriyordir.

Adabiyotshunos olim va yozuvchi Murod Muhammad Do'st aytganidek: "Faxriyor she'riyati biz ko'nikkan an'anaviy o'zbek lirik qoliplariga sig'maydi". Chunki ijodkor she'riyatga shunchaki kechinmalarni emas, balki chuqur intellektual tafakkur hamda fazoviy-geometrik tasavvurni olib kirdi. Shu bois uning she'rlari tayyor xulosa bermaydi, aksincha, kitobxonni shoir bilan birga fikrlashga, u so'z qatlamlariga yashiringan ramziy ma'noni anglashga undaydi. Bundan tashqari, Faxriyor o'zbek tilining naqadar moslashuvchan va zamonaviy filosofik fikrlarni ifodalashga qodir til ekanligini o'zining o'zgacha modernistik uslubi orqali isbotlab berdi.

Xona asta-sekin qorong'ilashar,

Devorlar sukunatlanar bir-bir...

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi she'riy parchada qatnashgan "sukunatlanmoq" so'zi okkazional so'z sanaladi. O'zbek tilida "sukunat cho'kdi", "sukunat saqlandi" kabi iboralar faol qo'llanilib keladi va muayyan bir makonda sukunatning, jimlikning paydo bo'lish, boshlanish va qoplash jarayonini ifodalovchi turg'un birikmalar hisoblanadi. Shoir bu ikki so'zli turg'un birikmalardan voz kechib, jarayonning o'zini, ya'ni sukunatning o'z-o'zidan shakllanishini bitta okkazional fe'lga jamlaydi.

Unda nega sendan izladim

Men o'zimni, qonimga tashna?

Imkonlandim, imkonsizlandim

Goh intiqib, gohida qaqshab.

O'zbek tilining izohli lug'atida "imkon" va "imkonsiz" tushunchalari fe'llik semasini bildirish uchun "imkon topmoq", "imkonsiz bo'lmoq" kabi (analitik) birikmalar shaklida namoyon bo'ladi. Yuqoridagi to'rtlikda shoir



ushbu birikmalarni qo'llashi ham mumkin edi. Lekin shoir affiksatsiya usulida (imkon + la + n, imkon + siz + la + n) so'z yasash orqali she'rdagi ma'noning yanada kuchayishiga erishgan.

Seni ko'rdim, faryodlandim,
Lekin kuydim jimgina
"Sim-sim"ladim, yuraging berk –
Ochilmadi simgina.

Yuqoridagi misrada "faryod chekmoq", "faryod qilmoq" birikmasi o'rnida "faryodlanmoq" okkazional so'zi qo'llanmoqda. Uning ishlatilishi faqatgina shakliy o'zgachalikni ifodalabgina qolmay, hissiy ta'sirchanlikni oshirish va asarga qo'shimcha yangi ma'no nozikligini yuklash uchun xizmat qilmoqda. Keyingi misrada qo'llangan "Sim-sim"ladim okkazional birligi esa "Ali bobo va qirq qaroqchi" ertagidagi "Sim-sim, eshigingni och!" jumlasiga ishora qiladi.

Yurak uzlatnishin Yassaviy kabi
Yolg'onchi dunyoni kechirib yashar.

Ushbu misrada qo'llangan "uzlatnishin" okkazional so'zi arabcha "uzlat – yolg'izlik, xilvat" va forsha "-nishin – o'tiruvchi, maskan tutuvchi" so'zlarining kompozitsiya usulida birikuvidan hosil bo'lgan. O'zbek tilining izohli lug'atida yolg'izlikni, xilvatni maskan tutgan shaxsni ifodalash uchun "g'o'shanishin", "xilvatnishin" kabi turg'un leksik birliklar mavjud bo'lib, ijodkor o'z fikrini ifodalash uchun xuddi shu ma'nodagi yangi bir so'zni, ya'ni "uzlatnishin" so'zini hosil qilgan.

Boshqa ijodkorlarga qaraganda Faxriyor ijodida okkazional birliklarni nisbatan ko'proq uchratamiz. Shoir qaysidir ma'noda kitobxonning diqqatini jalb qilish, o'z fikrlarini o'zgacha yo'sinda ifodalash va she'rning badiiy jozibasini oshirish maqsadida shunday yo'l tutgan deyishimiz mumkin. Ijodkorning she'rlarida qo'llagan har bir okkazional birliklar biri ikkinchisini takrorlamaydi. Kitobxonni zeriktirmaydi, balki yangi-yangi ma'no qirralarini kashf etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Faxriyor. Geometrik bahor. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Faxriyor. Dardning shakli. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000.
4. Ibragimova, I. A. Poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvi : Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Namangan, 2024. – 145 b.



BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE

